

**NAZAR ESHONQULNING “SHAMOLNI TUTIB BO‘LMAYDI
“HIKOYASIDAGI YETAKCHI VA EPIZODIK OBRAZLAR,
ULARNING TALQINI**

23-90A guruh talabasi
Ma’rofova Azizaxon

Annotasiya

Ushbu maqola Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasini qisqa yoritib, undagi yetakchi epizodik obrazlarni o‘rganib, ularga qisqacha talqin qilinib uning g‘oyalarini yoritib bergan.

Аннотация

В данной статье кратко освещён рассказ Назара Эшонкула «Поймать ветер невозможно», изучены его ведущие эпизодические образы, дана их краткая интерпретация и раскрыты основные идеи произведения.

Annotation

This article provides a brief overview of Nazar Eshonqul’s short story “It Is Impossible to Catch the Wind,” examines its key episodic characters, offers a short interpretation of them, and reveals the main ideas of the work.

Kalit so‘zlar: hikoya, epizod, epizodik obraz, hikoyachi, ijobiy, salbiy, qahramonlar

Kirish

Nazar Eshonqulning dastlabki ijodlaridan biri bo‘lmish “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasi 1966- yil “O‘zbekiston adabiyoti va sanati” gazetasida iyun (30-soni) da elon qilingan. Ushbu hikoya o‘zbek hikoyachiligida muhim yangilik bo‘ldi. U jamiyatchilik e’tiborini o‘ziga torta oldi. Asar garchi hajman katta bo‘lmasa-da, butun boshli bir oila qismatini o‘ziga singdira olgan.

Asosiy qism

Asarning bir umr yig‘ib- tergan va nafaqat o‘zining balki, butun boshli Tersota qishlog‘ining ham asosiy ozug‘i hisoblangan mollar podasini bosqinchi mirshablarga bermagani uchun otib tashlangan Rayim polvon va uning o‘spirin o‘g‘lining ayanchli o‘limi bilan boshlanishi ham hikoyadagi yetakchi qahramonlaridan biri bo‘lmish Rayim polvon va uning oilasining kechmish- kechirmishlari tafsilotlari haqidaligi yaqqol sezilib turadi. Hikoyadagi bosh qahramon Bayna momo qismati juda ham achinarli kechdi. U bir paytning o‘zida ham turmush o‘rto‘gi, ham endigina mo‘ylovlari sabza ura boshlagan o‘g‘lidan judo bo‘ldi. O‘zbekning sodda va samimiy, oqko‘ngil, mehribon, mushfiq ayolidan bir ondayoq qalbi nafratga to‘la g‘azab otiga mingan, mehr- shafqatsiz, qasoskor ayolga aylandi. Buning sababchisi kim ? Albatta, o‘sha

hamisha o‘z manfaatini o‘ylaydigan, qorni to‘ysa-da, ko‘zi to‘ymaydigan, nafsiga qul bo‘lgan, xalqni qiynab oxirgi bir burda noni ham tortib olib ko‘ngli joyiga tushadigan Zamon otboqardir. Bayna momo yigirma uch yil davomida Zamon otboqardan qasos olish maqsadida yashadi. Ana shu yigirma uch yil Bayna momoning bukilmash iroda va e’tiqodini sinadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Eri va o‘g‘lidani judo bo‘lganidan so‘ng jamiyatdan uzildi, uzlatga chekindi. Butun fikr-u zikri Zamon otboqardan qasos olishga qaratildi. Bayna momoning hamqishloqlaridan bu qadar nafratlanishiga sabab bir paytlar faqat qishloq emas, butun tog‘li xalqning obro‘sinini ko‘tarib nom chiqargan Rayim polvonni quloq deya ta’qib qilish, mol-mulkini tortib olish, so‘ng itday xor qilib, tashlashga yo‘l qo‘ygan va o‘g‘li bilan erini yangi zamon egalari -- Zamon otboqarlar ixtiyoriga berib qo‘ygan, yillar o‘tib o‘sha begunohlarning o‘limiga sababchi bo‘lgan, xalqni talagan Zamon otboqarni xuddi hech narsa bo‘lmaganday kutib olishi, sig‘inishni davom ettirishidir. “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasidagi Bayna momo milliy adabiyotimizda mutlaqo tasvir etilmagan obraz. Hikoya chinakam insonga, butun shaxsga bitilgan madhiyadir. Nomusli odamni, g‘ururli insonni, chinakam shaxsniyengib bo‘lmaydi. Uni qiynash, chalish, yiqitish, boringki, o‘ldirish mumkin, lekin mag‘lub qilish mumkin emas. Shaxsligi shakllanmagan yoxud sindirilgan kimsada g‘urur bo‘lmaydi. E.Fromm aytmoqchi: “...eng ulug‘ fazilat – itoatkorlik va eng katta gunoh – bo‘ysunmaslikdir”. Chindan ham Bayna momo obrazi yangicha uslub yangicha yo‘sinda talqin etilgan. “...Bayna momo tirikligida, garchi bu ayolni, erining polvonlik lash-lushlari va kiyim-kechaklari otgan, o‘lgandan so‘ng hech qachon yonmagan, tuynugi shuvab tashlangan ana u hujra kabi qorong‘u, musibat to‘la uyi ichkarisiga kirmagan bo‘lsa-da, ular qahr va g‘azabni sitam bilan ichiga yutib kelgan bu kampirni hurmat bilan eslashardi...” Asar muqaddimasidagi ushbu tasvirlar Bayna momoning umri ham eri va o‘g‘li bilan so‘nganligiga ishora qiladi. Bundan tashqari hatto hikoyadagi eng jiddiy to‘qnashuv-olishuv – momoning eri va o‘g‘lining qotili Zamon otboqardan qasos olishi, uni chavaqlab qonli barmoqlaridan judo etish voqeasi sahna ortida yuz beradi. Bu mudhish voqeani ham muallif imo-ishora, detallar orqali ayon etadi. Adib o‘zi bu asari haqida gapirganda esa Bayna momo obrazi haqida ijobiy fikrlar bildiradi. “Urush odamlari” dagi katta kelin, bu qissadagi Muazzam men uchun juda yaqin, bir-birini to‘ldiradigandek deydi. Keyinchalik bu asarda topilmagan narsani Bayna momo obrazida topdim deydi adib suhbatlarning birida. U “Momoqoshiq” qissasini aynan “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasining muqaddimasi bo‘lishi kerak edi deydi. Yozuvchi qalamiga mansub hikoyalarda ayol timsoli ba’zan dardli, ma’yus, g‘amgin, ba’zan esa jo‘shqin, beqaror, qat’iyatli tasvirlangan bo‘lsa-da, baribir ayol nozik xilqat ekanligi, u doim mehr va muhabbatga burkangan olamdagina sokin yashay olishi adib tomonidan jozibalitarzda bayon etilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Adibning har bir nasrida ayolning ulug‘lanishi orqali o‘zbek xalqining onaga bo‘lgan yuksak e’tirofini ko‘ra oldik. Hikoyaning yana bir

yetakchi qahramonlaridan biri bo‘lmish Rayim polvon asarda alohida ahamiyat kasb etgan. Uning Shukur oqsoqoling o‘g‘li ekanligi, otasi boshlagan yaxshi ishlarini davom ettirib, xalqqa manfaati tegayotganligi ta’kidlab o‘tilgan. Shu o‘rinda kitobxonning o‘y-fikrini yana bir mulohazali xayollar chulg‘ab oladi: agarda Zamon polvon bu oilani barbot etmaganda edi, qush uyasida ko‘rganini qiladi qabilidagidek ish bo‘lib Rayim polvonning ham o‘g‘li shunday xalqparvar shaxs bo‘lib yetishar edi. Ikkinchi tomondan nega shunday mol-dunyoga, obro‘-e’tiborga ega odam xalqni birlashtirib, birdamlikka boshlamadi, bir yoqadan bosh chiqarib xalq bilan hamjihatlikda Zamon otboqarga qarshi chiqmadi degan munozarali savollar ham Zamon otboqarni aybini yengillashtira oladi. Mening fikrimcha, hikoyadan anglashiladiki, hikoyadagi sadoqat, vafo, oqibat timsollarigan aylangan ayol Bayna momo, o‘sha davrning razilliklari, zulmlari Zamon otboqar, jamiyatdagi fidokor shaxs esa Rayim, Shukur oqsoqol, bo‘layotgan voqealarga e’tiborsiz, e’tibor bersa-da qo‘lidan hech nima kelmaydigan nochor xalq Bayna momoning hamqishloqlari timsolida chizib berilgan.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Nazar Eshonqulning uslubiga lol qolmaslikning iloji yo‘q. Asarda tanlab olingan har bir obraz, detal, voqeliklar ijodkorning naqadar mahoratli ekanligiga yaqqol dalildir. Undagi obrazlar xilma-xilligi asar individualligiga yanada ko‘rk bag‘ishlagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nazar Eshonqul “Shamolni tutib bo‘lmaydi”
2. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi